



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI INGLIZ TILI TA'LIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Madaminova Muzifa Shukurullo qizi

*Namagan Davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti*

<https://orcid.org/0009-0008-3197-1893>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida kreativ kompetentlikning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondashish va innovatsion g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tili ta'limida qo'llanilayotgan interfaol metodlar, raqamli vositalar va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligi amaliy jihatdan o'rganilib, olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, raqamli vositalar, kreativ kompetentlik, innovatsion g'oyalar, loyihalash, virtual ta'lim.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Abstract. This scientific article is devoted to the study of technologies for developing and enhancing the creative competence of students in specialized schools during English language instruction. The research examines the essence and structural components of creative competence, as well as modern pedagogical technologies that contribute to the development of students' creative thinking, non-standard problem-solving skills, and ability to generate innovative ideas. In addition, the effectiveness of interactive teaching methods, digital tools, and competency-based approaches used in English language education has been investigated from a practical perspective. Based on the findings, scientific conclusions and methodological recommendations have been formulated.

Keywords: interactive methods, digital tools, creative competence, innovative ideas, project-based learning, virtual education.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Данная научная статья посвящена исследованию технологий формирования и развития креативной компетентности учащихся специализированных школ на уроках английского языка. В ходе исследования были рассмотрены сущность и содержание креативной компетентности, её структурные компоненты, а также проанализированы современные педагогические технологии, направленные на развитие у учащихся творческого мышления, нестандартного подхода к решению проблем и способности генерировать инновационные идеи. Кроме того, изучена практическая эффективность интерактивных методов, цифровых средств и компетентностного подхода, применяемых в обучении английскому языку, в развитии креативной компетентности учащихся. На основе полученных результатов сформулированы научные выводы и разработаны методические рекомендации.

Ключевые слова: интерактивные методы, цифровые средства, креативная компетентность, инновационные идеи, проектирование, виртуальное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kengayib borishi xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat o'quvchilardan nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarga turli nuqtai nazardan qaray olish kabi sifatlarni ham talab etmoqda. Bunday sharoitda ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan samarali texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan ta'lim berishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni ham o'quvchilarning faqat til bilimlarini emas, balki ularning ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik, mustaqil qaror

qabul qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentlik o'quvchining mavjud bilim va tajribasidan foydalangan holda yangi g'oyalar yaratishi, muammolarga noodatiy yechimlar topishi, o'z fikrini erkin va asosli ifodalay olishi bilan tavsiflanadi. Ingliz tili darslarida bunday kompetentlikni rivojlantirish turli interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va kommunikativ vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. Natijada o'quvchilar til vositalaridan samarali foydalanish bilan birga, o'zlarining ijodiy salohiyatini ham namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarning samaradorligi tahlil qilinib, ushbu yo'nalishda tegishli xulosa va tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika, psixologiya va chet tillarni o'qitish metodikasi sohalarida eng ko'p tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Kreativlik tushunchasi dastlab psixologik nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchilar uni shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va mavjud bilimlardan yangi vaziyatlarda samarali foydalana olish qobiliyati sifatida izohlaydilar [1]. Keyinchalik ushbu yondashuv ta'lim tizimiga ham tatbiq etilib, kreativ kompetentlik o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etila boshlandi. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish kommunikativ yondashuv bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar nafaqat til

birliklarini o'zlashtirishi, balki ulardan yangi g'oyalarni ifodalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va erkin muloqotga kirishishda foydalanishi lozim [2]. Shu sababli ingliz tili darslarida ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar, munozaralar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, tadqiqotchilik ko'nikmalari va hamkorlikda ishlash tajribasi kreativlikning muhim omillari sifatida ko'rsatib berilgan [3]. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim va interfaol metodlarning o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishdagi imkoniyatlari alohida ta'kidlanadi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil izlovchi va yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan [4]. Xususan, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirishi hamda ularning kreativ salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhiti va innovatsion texnologiyalarning kreativ kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni ham alohida e'tiborga olinmoqda [5]. Virtual ta'lim platformalari, multimedia vositalari va raqamli loyihalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va yangi mahsulotlar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini aniqlash masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ta'lim amaliyotini

takomillashtirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, tajriba-sinov hamda qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan va ingliz tilini chuqurlashtirilgan dasturlar asosida o'rganayotgan o'quvchilar tanlab olindi. Tadqiqot davomida ularning ingliz tili darslaridagi faolligi, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy topshiriqlarni bajarish ko'nikmalari hamda muammoli vaziyatlarga yondashuv xususiyatlari muntazam ravishda kuzatib borildi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida o'quvchilarning kreativ kompetentligini baholashga xizmat qiluvchi diagnostik topshiriqlar, ijodiy yozma ishlar, loyiha faoliyati natijalari, og'zaki taqdimotlar hamda maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlaridan foydalanildi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilari va o'quvchilar o'rtasida suhbatlar hamda so'rovnomalar o'tkazilib, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida ingliz tili darslariga kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiya joriy etildi. Ushbu texnologiya tarkibida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o'qitish, rol o'yinlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanildi. O'quvchilarning kreativ kompetentlik darajasi tajriba boshlanishidan oldin va tajriba yakunida aniqlanib, natijalar o'zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida to'plangan ma'lumotlar statistik va pedagogik tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan

maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining samaradorligi baholandi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyaning amaliy samaradorligi o'rganildi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilarning aksariyati ingliz tili bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsalar-da, ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondashish, o'z fikrlarini erkin va original tarzda ifodalash bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelganlar. Xususan, o'quvchilar ko'proq tayyor qoliplar asosida fikr bildirishga moyillik ko'rsatgan bo'lib, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularga mustaqil munosabat bildirish darajasi nisbatan past ekanligi kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ingliz tili darslariga kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiya bosqichma-bosqich joriy etildi. Darslarda muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar, munozaralar, ijodiy yozuv topshiriqlari hamda hamkorlikda ishlash metodlaridan muntazam foydalanildi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borishi, o'z g'oyalarini himoya qilishi va turli nuqtai nazarlarni taqqoslashi uchun qulay pedagogik muhit yaratildi. Pedagogik kuzatishlar natijasida o'quvchilarning darslardagi faolligi, tashabbuskorligi va mustaqil fikrlashga bo'lgan intilishi bosqichma-bosqich ortib borgani aniqlandi. Dastlab o'z fikrini qisqa va sodda ifodalash bilan cheklangan o'quvchilar keyinchalik muammoli vaziyatlarga bir nechta yechim taklif qilish, g'oyalarini dalillar bilan asoslash hamda ingliz tilida erkin munozara olib borish ko'nikmalarini namoyon eta boshladilar. Ayniqsa, loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy yondashuvi va hamkorlikda ishlash qobiliyati yaqqol namoyon bo'ldi.

Yakuniy baholash natijalari dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. O'quvchilarning kreativ fikrlash, original g'oyalar ilgari surish, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish va ingliz tilida erkin ijodiy muloqot

qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Ijodiy yozma ishlarda mavzuni yoritish sifati, fikrlarning mustaqilligi va lug'aviy vositalardan foydalanish darajasi oshgani qayd etildi. Og'zaki topshiriqlarda esa o'quvchilar o'z fikrlarini erkinroq ifodalash, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish va kutilmagan savollarga ijodiy javob qaytarish qobiliyatini namoyish etdilar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki ijodiy salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metod va vositalar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ingliz tili darslarida o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida e'tibor talab qiladigan pedagogik yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. O'quvchilarga erkin fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o'z g'oyalarini amaliy faoliyat orqali namoyon etish imkoniyati yaratilgan taqdirda ularning kreativ salohiyati ancha faol rivojlanadi. Ayniqsa, loyiha asosida o'qitish, munozaralar, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitilgan ingliz tili darslari o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirishi kuzatildi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki yangi g'oyalar yaratish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va muammolarga original yechimlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish ko'p jihatdan ta'lim muhitiga bog'liq. O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlovchi va hamkorlikka asoslangan muhit yaratilgan

hollarda o'quvchilar o'z fikrlarini erkinroq ifodalashga, xatolardan cho'chimay yangi g'oyalarni ilgari surishga intiladilar. Aksincha, faqat reproduktiv faoliyatga asoslangan darslarda o'quvchilarning ijodiy faolligi cheklanishi mumkin. Shu sababli kreativ kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va darsni tashkil etish uslubi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli vositalar va interfaol metodlarning kreativ kompetentlik rivojiga ijobiy ta'siri ham kuzatildi. Turli multimedia materiallari, onlayn platformalar va ijodiy topshiriqlarga asoslangan faoliyatlar o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirib, ularni mustaqil izlanishga undadi. Biroq kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida texnologiyalarning o'zi yetarli emasligi, ular maqsadga muvofiq metodik yondashuv bilan uyg'unlashtirilgandagina kutilgan natijani berishi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi.

Kreativ kompetentlikni baholash mezonlarini aniq belgilash, barcha o'quvchilarni ijodiy faoliyatga teng darajada jalb qilish hamda dars vaqtini samarali taqsimlash masalalari qo'shimcha metodik izlanishlarni talab qiladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda o'quvchilarning til darajasi va kreativ topshiriqlarning murakkablik darajasi o'rtasida nomuvofiqlik kuzatilishi mumkin. Bu esa topshiriqlarni ishlab chiqishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ salohiyatini yuksaltirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Shu bois ta'lim amaliyotida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalarni yanada takomillashtirish, ularni o'quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish hamda ushbu yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Olingan natijalar kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metod hamda texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z g'oyalarini erkin ifodalashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida loyiha faoliyati, munozaralar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirdi. Bunday mashg'ulotlar ularga tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, yangi g'oyalar yaratish, turli yechimlarni izlash va fikrlarini asoslash imkonini berdi. Natijada o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi hamda ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Kuzatishlar o'quvchi markazli yondashuv, qulay psixologik muhit va hamkorlikka asoslangan faoliyat kreativ kompetentlik rivojlanishining muhim omillari ekanligini ko'rsatdi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qila olgan, tashabbuslari qo'llab-quvvatlangan muhitda ijodiy faoliyatga ko'proq jalb etildi va o'z imkoniyatlarini kengroq namoyon qila oldi. Natijalar asosida aytish mumkinki, ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois bunday texnologiyalarni ta'lim amaliyotida keng qo'llash hamda ularni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Astambayeva, Z. ., Kenzhetaeva, R., Zhumash, Z. ., Sagidolda N. ., & Italmassova, R. . (2023). Assessment of future primary school teachers' development of creative competence: A case study. *Journal of Education and E-Learning Research*, 10(2), 260–269. <https://doi.org/10.20448/jeelr.v10i2.4591>
2. Хамидова, Г. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Anatomical Sciences Education*, 16(2), 196-208.
3. Байбабаев, Д. М. (2022). Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар. *Вестник науки*, 1(7 (52)), 16-20.

4. Bahodirovna, M. G. (2023). WAYS TO DEVELOP CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Confrencea*, 4(04), 76-82.
5. Madaminova, M. (2026). CHET TILINI O 'QITISHDA KREATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, 3(4), 15-19.
6. Раҳимов, У., & Махаммаджонов, Н. КОМПЕТЕНТЛИК ВА ПРАГМАТИКА. *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура*, (1), 93-96.
- Рахимов, З. Т. (2019). Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. *Современное образование (Узбекистан)*, (7 (80)), 3-8.